



*2024- yil yanvar-avgust oylari uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2024- yil yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3721,3 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 73,9 mln. AQSH dollariga yoki 1,9 %ga kamaydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **3 721,3** -1,9 %

(2023- y.: **3 795,3**)



Saldo

2024- y.: **-1 186,5** (2023- y.: -1 326,7)




Eksport

2024- y.: **1 267,4** 2,7 %

(2023- y.: **1 234,3**)


TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **2 453,9** -4,2 %

(2023- y.: **2 561,0**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 1 267,4 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2,7 %ga ko‘paydi) va import hajmi 2 453,9 mln. AQSH dollariga (4,2 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -1 186,5 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust mln. AQSH dollari)


XXR	Rossiya	Qozog‘iston	Turkiya	Belarus
TSA – 1 022,2	TSA – 974,1	TSA – 491,5	TSA – 246,8	TSA – 86,2
Eksport: 397,4 Import: 624,8	Eksport: 372,6 Import: 601,5	Eksport: 79,6 Import: 411,9	Eksport: 137,2 Import: 109,6	Eksport: 12,5 Import: 73,7
 27,5 %	 26,2 %	 13,2 %	 6,6 %	 2,3 %
Italiya	Tojikiston	Germaniya	Qirg‘iz Respublikasi	Afg‘oniston
TSA – 65,0	TSA – 66,8	TSA – 60,0	TSA – 56,9	TSA – 41,8
Eksport: 9,9 Import: 55,1	Eksport: 37,4 Import: 29,4	Eksport: 4,2 Import: 55,8	Eksport: 25,9 Import: 31,0	Eksport: 41,4 Import: 0,4
 1,7 %	 1,8 %	 1,6 %	 1,5 %	 1,1 %



YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2023- y.	2024- y.
Rossiya	789,2	974,1
Eksport	308,5	372,6
Import	480,7	601,5
XXR	930,5	1 022,2
Eksport	285,4	397,4
Import	645,1	624,8
Qozogʻiston	605,0	491,5
Eksport	71,1	79,6
Import	533,9	411,9
Turkiya	328,1	246,8
Eksport	216,2	137,2
Import	111,9	109,6
Braziliya	192,0	134,8
Eksport	0,0	0,0
Import	192,0	134,8
Belorus	68,6	86,2
Eksport	15,3	12,5
Import	53,3	73,7
Germaniya	82,8	60,0
Eksport	7,1	4,2
Import	75,7	55,8
Italiya	105,3	65,0
Eksport	16,4	9,9
Import	88,9	55,1
Shveytsariya	5,7	51,1
Eksport	1,3	2,4
Import	4,4	48,7
Tojikiston	65,7	66,8
Eksport	29,6	37,4
Import	36,1	29,4






HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-avgust, mln. AQSH doll.)*





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,3 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,7 %ga ko‘paydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,7 %ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 53,7 %ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-avgust oylarida 1 724,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 555,8 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 1 168,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, %da)

Rossiya – 26,2



Qozog'iston – 13,2



Belarus– 2,3



Qirg'iz Respublikasi – 1,5



Turkmaniston – 0,4



Tojikiston– 1,8



Ozarbajjon – 0,4



Ukraina – 0,4



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (26,2%), Qozog'iston (13,2%) hamda Belarus (2,3%) davlatlari bilan qayd etildi.



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 905 taga yetdi va ular tomonidan 1 267,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 2,7 %ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust ulushi %da)



11,4

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,4

2. Ichimliklar va tamaki



3,3

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



0,9

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,5

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



5,0

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



62,6

7. Sanoat tovarlari



3,5

8. Mashinalar va transport asbob-uskunolari



12,1

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,3

10. Xizmatlar



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan, %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	1 234,3	1 267,4	90,9	102,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	139,5	144,3	106,8	103,4	11,3	11,4
Ichimliklar va tamaki	5,8	4,7	218,7	81,0	0,5	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	36,5	42,1	75,4	115,6	3,0	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,1	11,3	159,4	274,7	0,3	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	5,7	64,4	631,6	0,1	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	49,3	64,0	94,4	129,9	4,0	5,0
Sanoat tovarlari	788,6	793,6	83,6	100,6	63,9	62,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	34,8	44,2	79,9	127,3	2,8	3,5
Turli xil tayyor buyumlar	171,6	153,2	132,4	89,3	13,8	12,1
Xizmatlar	3,2	4,3	82,6	135,1	0,3	0,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (62,6%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,4%) va turli xil tayyor buyumlar (12,1%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-avgust oyida MDH mamlakatlarga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 %ga ko'paygan.



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 86,2 %ni tashkil etdi.



TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, %da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust, mln.AQSH doll.)*





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-avgust oylarida 102,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 67,4 mln. AQSh dollariga teng 102,7 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 32,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 25,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 67,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust, o‘zgarish sur‘atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va
rezavorlar
25,3 ming tonna
32,1 mln.
AQSH dollari

Uzum
5,6 ming tonna
6,7 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g‘oqlar
0,6 ming tonna
1,0 mln. AQSH
dollari

Sabzavotlar
77,4 ming tonna
35,3 mln. AQSH
dollari



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 2 453,9 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 95,8 %ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (24,3%), sanoat tovarlari (13,4%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,4%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 mln. AQSH dollariga kamaydi va 2 453,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 6,2 mln. AQSH dollariga yetdi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	2 561,0	2 453,9	121,6	95,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	451,5	516,5	100,0	114,5	17,6	21,1
Ichimliklar va tamaki	4,2	6,4	121,4	151,9	0,2	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	375,8	328,8	86,8	87,5	14,7	13,4
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	179,5	286,8	270,2	159,8	7,0	11,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	51,3	61,5	134,6	119,9	2,0	2,5
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	257,7	230,6	110,8	89,5	10,1	9,4
Sanoat tovarlari	407,2	329,4	100,9	80,9	15,9	13,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	772,9	597,3	195,9	77,3	30,2	24,2
Turli xil tayyor buyumlar	57,2	44,9	76,8	78,5	2,2	1,8
Boshqa tovarlar	0,6	45,5	22,7	7154,4	0,0	1,9
Xizmatlar	3,1	6,2	55,8	197,7	0,1	0,3

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-avgust natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 47,6 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,8 %ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oyida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya) jami importning 78,8 %ni tashkil etdi.



TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, %da)

25,5



XXR

24,5



Rossiya

16,8



Qozog'iston

4,5



Turkiya

3,0



Belarus

2,2



Italiya

2,3



Germaniya

21,2



Boshqa davlatlar



TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, mln. AQSH doll.)

